

“ABULG‘OZI BAHODIRXONNING “SHAJARAYI TURK” ASARINING TARIXIY-BADIIY XUSUSIYATLARI”

Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik

kafedrası o‘qituvchisi

Abdulhamidova Hikmatoy Ahrorjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich 23.90A-guruh talabasi

Mahmudova Gulshoda Ikromjon qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari tarixiy va badiiy yodgorlik sifatida tahlil qilinadi. Asarda turkiy va mo‘g‘ul hukmdorlari, Markaziy Osiyo hamda Xiva xonligi tarixiga oid voqealar xronologik izchillikda yoritilgan. Muallifning yozma va og‘zaki manbalarga tayanishi, badiiy tasvir hamda izohli bayon uslubi asarning badiiy va ilmiy ahamiyatini oshirganligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar:

Abulg‘ozi Bahodirxon, Shajarayi turk, genealogik asar, tarixiy-badiiy yodgorlik, turkiy urug‘lar, O‘g‘uzxon, Xiva xonligi, xronologik bayon, badiiy tasvir, memuar.

O‘zbek adabiyoti va tarixshunosligining muhim yodgorliklaridan biri Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan yaratilgan “Shajarayi turk” asari XIII—XVII-asrlardagi mo‘g‘ul va turk hukmdorlari haqidagi ma’lumotlarni, xususan, Markaziy Osiyo xonliklari, jumladan, Xiva xonligining muallif yashagan davrgacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga olgan. Abulg‘ozi Bahodirxon Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy voqealarni badiiy bo‘yoqlar, xotiralar, hayotiy lavhalar orqali kishilar portreti, ularning xususiyatini badiiy tasvirlaydi. Shu jihatlar asarning nafaqat tarixiy, balki badiiy qiymatini ham oshirgan. Asar tarixiy-badiiy obida, memuar kitobdir.

“Shajarai turk” mazmunan genealogik asar bo‘lib, turkiy urug‘ va qabilalarning kelib chiqishi, tarqalishi, boshliqlari, yirik tarixiy jarayonlar haqida muhim

ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Abulg'ozhi ko'plab yozma manbalarga, shuningdek, og'zaki rivoyatlarga tayangan. Aynan shuning uchun asar tarix kitobi bo'lishi bilan birga badiiy-nasriy yodgorlik sifatida ham qadrlanadi.

Asardagi tarixiy voqealarni bayon etilishi xronologik izchillikka tayanadi. Unda insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi diniy afsonalardan tortib to XVII asr voqealarigacha ketma-ket, uzluksiz bayon etiladi.

Asar sharq klassik adabiyotida an'anaga aylanib qolgan Xudo, payg'ambar hamda aziz-avliyolar sha'niga hamdu sanolar aytish bilan boshlanadi. Abulg'ozhi yerda odamning paydo bo'lishi haqidagi afsonani qisqa bayon qilish uslubidan foydalanib tasvirlaydi. Bunga sabab o'sha davr islom va shariat peshvolari bu haqida tinimsiz targ'ib va tashviq qilayotganlari edi.

“Shajarayi turk” asarini o'qish jarayonida urug'lar orasida ayrim urf-odatlarining patriarxat jamiyatga tegishli bo'lgan qonuniyatlarni ko'ramiz. Masalan, O'g'uzxonning katta o'g'li Kunxon hukmronlik qilgan davrda yuz bergan tarixiy voqealarda, turli urug'lardan tashkil topgan yirik feodal davlatni kengash bilan boshqarish odat tusiga kirgan. Biroq bu davrdagi voqealarni bayon qilish usuli xalq ertaklarini yodga tushiradi. “Andin so'ng O'g'uzxon qildurg'an oltun evni tikturdi. O'ng yoqda olti oq o'rg'a va so'l yoqda olti oq o'rg'a tikturdi. Taqi o'ng yoqda boshina oltun tuquq birkirgan qirq quloqch yog'ochni tikturdi. Taqi xon yorlig'i birlan buzuq o'g'lonlari va navkarlari birlan oltun to'quqni, uch o'q o'g'lonlari navkarlari birlan kumush to'quqni ot bilan chopib otdilar. To'quqlarni urg'an kishilarg'a ko'p in'omlar berdi. Kunxon otasining qilganiga amal qilib, to'qqiz yuz yilqi, to'qqiz ming qo'y o'ldurtirdi. To'qqiz bulg'ar havuzga araq tuldirdi. To'qson bulg'or havuzga qimiz soldirdi. Qirq kecha-kunduz aysh va ishrat qildilar”.¹

Voqealarni bayon qilishning Abulg'ozhi ikki xil usulini qo'llagan. Shulardan birinchisi — podshohlarning faoliyatlari haqida qisqacha ma'lumot berish bo'lsa,

¹ Abulg'ozhi Bahodirxon. Shajarayi turk. — Toshkent: Fan, turli nashrlar (1960–1992).

² Abulg'ozhi Bahodirxon. Shajarayi turk. — Toshkent: Fan, turli nashrlar (1960–1992).

ikkinchisi — keyingi davrlarga taalluqli bo‘lib, tarixiy voqealarning mufassal bayonini berishdir.

Ana shu ikki tasviriy usuldan tashqari, muallif o‘rni-o‘rni bilan ayrim terminlar haqida lug‘at, izoh va sharhlar berish, etimologik ma’lumotlar berish usulini ham qo‘llaydi. O‘g‘uzxonning olti o‘g‘lidan tarqalgan yigirma to‘rt nabirasining nomlarini sanab o‘tish bilan birga, ularning lug‘aviy mazmunini ham bayon etadi. “Qayi”ning ma’nosi mahkam demak bo‘lur. “Alkazvli”ning ma’nosi muvofiq demak bo‘lur. “Qarazvli”ning har ma’nosi qayda o‘ltursa xirgoh, birlan o‘lturg‘uvchi demak bo‘lur. “Elzir”ning ma’nosi ellar akasi demak bo‘lur. “Dudur”ning ma’nosi yurtni olmoqni va ani saqlamoqni bilikchi demak bo‘lur. “Duqar”ning ma’nosi to‘garak demak bo‘lur.²

Abulg‘ozi tarixiy voqealarni bayon etishda ana shu uch asosiy tasvir usulidan tashqari, hajviy va madhiya usullaridan ham foydalanadi.

«Shajarai turk»da mashhur tarixiy shaxslarning zafarli urush-yurishlari, ularning tabiat qiyinchiliklarini yengib o‘tishlari so‘ngra o‘z yurtlariga shon-shuhrat bilan qaytib dabdabali to‘ylar qilishlari, o‘z mamlakatlari chegaralarini kengaytirishlari, shahar va qishloqlarni obodonlashtirishlari mehr bilan tasvirlansa, salbiy personajlarning qahraton qishda, yulg‘inzor va yerto‘lalarda, qorong‘u tunlarda fojiali halokatga uchrashi zaharxanda bilan bayon etiladi.

Afsonaviy podshohlarning faoliyati haqida qisqacha xarakteristika, asosiy voqealarni mufassal tasvirlash — tarixiy shaxslar bayonidagi izohli tasvir, salbiy shaxslar qiyofasini fosh qiluvchi hajviy usul va tarixda iz qoldirgan shaxslarni ulug‘lash «Shajarai turk»ning o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy uslubini yuzaga keltiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari nafaqat tarixiy manba, balki yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan nodir asardir. Asarda turkiy xalqlarning kelib chiqishi, katta tarixiy jarayonlar va mashhur shaxslarning faoliyati izchil, ta’sirchan va o‘ziga xos badiiy usulda yoritilgan. Shuningdek, asarda tarixiy haqiqat va badiiy tasvirning o‘zaro uyg‘unlashuvi, muallifning tarixiy voqealarni

baholashda adolat va haqqoniylikka intilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Shajarayi turk” bugungi kunda ham adabiyotshunoslik va tarixshunoslik uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarai turk. — Toshkent: Fan, turli nashrlar (1960–1992).
2. Xudoynazarov H. “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi, Toshkent: O‘qituvchi, 1993
3. Mallayev N. M. O‘zbek adabiyoti tarixi, 1- kitob, Toshkent, 1976
4. Mashrabaliev D. “Shajarayi turk” – noyob manba // Academic Research Journal. – 2022. – July. – Vol. 1, Issue 2. – B. 112–116.